

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI

XASANOV DILMUROD XOLMUROD O‘G‘LI

**O‘RTA SINF O‘QUVCHILARINING CHIDAMLILIGINI
RIVOJLANTIRISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.04 - Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv
jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Xasanov Dilmurod Xolmurod o'g'li

O'rta sinf o'quvchilarining chidamliligini rivojlantirish uslubiyatini takomillashtirish	3
--	---

Хасанов Дилмурод Холмурод угли

Совершенствование методики развития выносливости у учащихся средних классов	31
---	----

Khasanov Dilmurod Kholmurod ugli

Optimizing the methodology for endurance development in middle school students	61
--	----

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works	65
-------------------------------	----

JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI

XASANOV DILMUROD XOLMUROD O‘G‘LI

**O‘RTA SINF O‘QUVCHILARINING CHIDAMLILIGINI
RIVOJLANTIRISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.04 - Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy
tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Ped3741 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb sahifasida (www.jtsu.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Umarov Djamshid Xasanovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

To‘xtaboyev Nizomjon Tursunaliyevich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Musayev Baxrom Baxtiyorovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Qo‘qon Davlat Universiteti

Dissertatsiya himoyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti huzuridagi DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil “___” soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tdi. Manzil: 100073, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Yangi O‘zbekiston ko‘chasi, Olimpiya shaharchasi. Tel.: (0-370)-717-17-19, 717-27-27, faks: (0-370)-717-17-76, Veb-sayt: www.djtsu.uz, e-mail: info@jtsu.uz. O‘zbekiston davlat sport akademiyasi “Ma’muriy” bino 1-qavat, 145-xona).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19-uy. Tel.: (0-370)-717-17-19, 717-27-27, faks: (0-370)-717-17-76.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “___” _____ kuni tarqatildi.
(2026-yil “___” _____ dagi ____ raqamli reyestr bayonnomasi).

F.A.Kerimov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
p.f.d., professor

D.Y.Egamov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
p.f.b.f.d. (PhD)

O.J.Dadabayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, p.f.d. (DSc), professor

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati. Dunyoda jamiyatning hozirgi zamondagi holati, uning rivojlanish sur'atlari o'sib kelayotgan yosh avlod va uning salomatligini yaxshilash bo'yicha yuqori talablar qo'yilmoqda. Shundan kelib chiqib, yoshlar orasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish barcha davlatlarda ahamiyatli o'rinni egallamoqda. Bugungi globallashuv sharoitida maktab o'quvchilarini jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, yangi turdag'i ta'lif-tarbiya shakllarini jorish etish, har tomonlama chiniqtirish asosida organizm imkoniyatlarini to'liq namoyish etishga qaratilgan dasturlarni yaratish va individuallashtirish, tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash hamda o'quvchilarni darsdan tashqari jismoniy tarbiya mashg'ulotlari jarayonida chidamlilik sifatini rivojlantirishning eng oqilona vosita va usullarini izlab topish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon mamlakatlarida maktab o'quvchilarining bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazish va salomatliklarini mustahkamlash uchun darsdan tashqari mashg'ulotlarni o'tkazish, jismoniy sifatlarni rivojlantirish, harakat ko'nikma va malakalarini shakllantirish bo'yicha ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Hozirgi zamon ma'lumotlariga ko'ra rivojlangan texnologiyalar asrida o'rta sinf o'quvchilari harakat faolligining pasayib borayotganligi namoyon bo'lmoqda. Darsdan tashqari jismoniy tarbiya mashg'ulotlari jarayonini samarali tashkil qilish uchun o'rta sinf o'quvchilarining har bir choraklarda alohida sport va harakatli o'yinlardan unumli foydalanishga qaratilgan mikrosikllar va mezosikllarni yaratish, aylanma mashg'ulot mashqlarini o'quv yili davomida oylar uchun alohida ishlab chiqish, qo'shma sport turlariga asoslangan aralash mashqlarni tizimli qo'llash, jismoniy va funksional tayyorgarlik darajalarini inobatga olgan holda chidamlilik sifatini rivojlantirishga asoslangan tayyorgarlik dasturlarini real holatda tajribadan o'tkazish hozirgi zamon muammosi sifatida dolzarblichiga qolmoqda.

Respublikamizda mакtab o'quvchilarining jismoniy tarbiya mashg'ulotlari jarayonini samarali tashkil etishda jismoniy sifatlarini rivojlantirish usullariga alohida e'tibor qaratilmoqda.¹ Mamlakatimizda barkamol avlodni shakllantirish, yoshlarni ma'nnaviy-axloqiy va jismonan sog'lom etib tarbiyalash, ularni olib borilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Maktab o'quvchilarining jismoniy tarbiya sifatini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar ham turlicha ko'rinish olmoqda. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, darsdan tashqari jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida o'rta sinf o'quvchilarining chidamlilik sifatini rivojlantirish bo'yicha zamonaviy ilmiy tadqiqotlarni olib borish zaruriyati mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdag'i PQ-3907-sон "Yoshlarni ma'nnaviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lif-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-sон "O'zbekiston

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdag'i PQ-3907-sон "Yoshlarni ma'nnaviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lif-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. <http://lex.uz>.

Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni, 2020-yil 30-oktyabrdagi PF-6099-son “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni, 2022-yil 3-noyabrdagi PQ-414-son “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlarida hamda sohadagi boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarini amalga oshirish uchun ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy-huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovation g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga bog‘liq holda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamizda maktab o‘quvchilarining darsdan tashqari mashg‘ulotlarini tashkil qilish, mакtab o‘quvchilarini jismoniy tarbiya darslarida shug‘ullantirish va asosiy jismoniy sifatlarini tarbiyalash bo‘yicha R.S.Salomov, T.S.Usmonxodjayev, O.V.Goncharova, G.X.Salixova, O.R.Igamberdiyev, D.N.Raxmatova, X.N.O‘tashev, L.Z.Xolmurodov, E.T.Raxmanov, A.E.Bobomurodovlar tomonidan bir qator tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsada 5-6 sinf o‘quvchilarining chidamlilik sifatini tizimli rivojlantirishda ilmiy-uslubiy muammolar mavjudligini ko‘rish mumkin.²

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi olimlaridan mакtab o‘quvchilarini jismoniy yuklamalarini me’yorlash, ta’lim muassasalarida darsdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil qilish va o‘tkazish bo‘yicha V.I.Lyax, V.K.Balsevich, L.P.Matveyev, Y.F.Kuramshin, I.P.Flyanku, Y.P.Maksachuk, Y.Y.Nikitina, B.F.Prokudin, L.V.Rubleva, V.N.Seluyanov, Y.P.Surmin, R.V.Tambovseva, G.A.Zayseva kabilar qator tadqiqotlarni olib borganlar. Biroq darsdan tashqari o‘quvchilar chidamliligini rivojlantirish ishlari to‘liq hal etilmaganligini ko‘rish mumkin.³

Xorijiy davlatlarda ta’lim muassasalarini o‘quvchilar bilan sog‘lomlashtirishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlarni tashkil etish va o‘tkazish, innovatsion

² Goncharova O.V. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish. Toshkent-2005. – 173 b. Salixova G.X. 13-15 yoshli mакtab o‘quvchilarining jismoniy tayyorgarligini darsdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida rivojlantirish metodikasi. O‘z Res. OAK. p.f.b.f.d. (PhD) dissertatsiya. Chirchiq-2022. – 147 b. Igamberdiyev O.R. Umumta’lim maktablaridagi 11-12 yoshli o‘quvchilarni futbol bilan shug‘ullantirish orqali jismoniy tayyorgarligini oshirish. O‘z Res. OAK. p.f.b.f.d. (PhD) dissertatsiya. Chirchiq-2022. – 157 b. Raxmatova D.N. Bolalar va o‘smirlar sport maktabining boshlang‘ich tayyorgarlik guruhida chidamlilikni tarbiyalash. O‘z Res. OAK. p.f.n., dissertatsiya. Toshkent-2010. – 121 b. O‘tashev X.N. Umumiyo‘rta ta’lim maktablarida ommaviy sport harakatini joriy etish yo‘llari. O‘z Res. OAK. p.f.b.f.d. (PhD) dissertatsiya avtoreferati. Chirchiq-2024. – B. 18-19. Bobomurodov A.E. Jismoniy tarbiya, sport nazariyasi va uslubiyati (Jismoniy sifatlarni umumiyo‘tsasnifi). O‘quv qo‘llanma, Toshkent – 2020. – B. 103-115.

³ Лях В.И. Физическая культура. Рабочие программы. Предметная линия учебников М.Я.Виленского, В.И.Ляха. 2013. – 222 с. Бальсевич, В. К. Онтокинезиология человека / В. К. Бальсевич. – М.: Теория и практика физической культуры, 2000. – 275 с. Матвеев, Л.П. Теория и методика физической культуры. / Л.П. Матвеев. – 3-е изд., перераб. и доп. – М.: ФиС: СпортАкадемПресс, 2008. – 543 с. Курамшин Ю.Ф. Теория и методика физической культуры. Учебник. Под редакцией Ю.Ф.Курамшина. М.: Советский спорт. 2007. – 464 с. Максачук, Е.П. Развитие выносливости у школьников 2-4 классов средствами легкой атлетики на учебных занятиях по физической культуре: автореф. дис. ... канд. пед. наук : 13.00.04 / Максачук Екатерина Павловна; МГАФК. – М., 2010. – 24 с.

yondashuvlardan foydalanish, o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligini tashxislash va baholash B.Bond, C.A.Williams, S.R.Jackman, D.Woodward, N.Armstrong, A.R.Barker, B.X.Landa, S.V.Nachinskaya va boshqalar tomonidan dolzarb masala bo‘lib qolayotganligini takidlaganlar.⁴

Bugungi kunda chidamlilik va uni rivojlantirishning uslubiy tamoyillari to‘g‘risidagi tasavvurlar organizmni faqat kislorodga to‘yintirishga emas, balki to‘qima metabolizmi konsepsiyasiga va insonning maqsadli mushak faoliyati sharoitlariga moslashishining fiziologik va biokimyoiy mexanizmlarini bilishga asoslanadi.

O‘quvchilarning jismoniy tarbiyasi masalalari mutaxassislar tomonidan har tomonlama tadqiq qilinganligiga qaramay, aynan darsdan tashqari vaqtarda o‘quvchilarning chidamlilik sifatini rivojlantirishning nazariy va uslubiy jihatlari respublikamizda yetarlicha o‘rganilmagan. Yuqoridagilardan kelib chiqib, darsdan tashqari vaqtda umumta’lim maktablari o‘rta sinf o‘quvchilarining chidamlilik sifatini rivojlantirish orqali o‘quvchilarni jismoniy tarbiyalash metodikasini takomillashtirish muammosi bugungi kunda dolzarb hisoblanib, ilmiy-pedagogik jihatdan asoslanishni talab qiladi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “O‘zbekistonda mакtabgacha va umumiyl o‘rta ta’lim muassasalarida tarbiyanuvchi-yoshlarning jismoniy tarbiya tizimida pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish” mavzusi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi 5-6 sinf o‘quvchilarining darsdan tashqari jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida chidamlilik sifatini rivojlantirish uslubiyatini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

5-6 sinf o‘quvchilarida chidamlilik sifatini darsdan tashqari mashg‘ulotlarda rivojlantirishga qaratilgan dastur ishlab chiqish;

5-6 sinf o‘quvchilarining darsdan tashqari jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida chidamlilik sifatini rivojlantiruvchi takomillashgan aylanma mashg‘ulot vositalarini ishlab chiqish;

5-6 sinf o‘quvchilarining darsdan tashqari jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida chidamlilik sifatini rivojlantiruvchi mashg‘ulot mezosikllarini ishlab chiqish;

5-6 sinf o‘quvchilarining darsdan tashqari jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida chidamlilik sifatini rivojlantiruvchi qo‘shma sport turlariga asoslangan kompleks mashqlar majmularini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida 5-6 sinf o‘quvchilari bilan olib borilgan darsdan tashqari jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari jarayoni olingan.

⁴ Bond B, Williams CA, Jackman SR, Woodward A, Armstrong N, Barker AR. Accumulating exercise and postprandial health in adolescents. Metabolism. 2015. - P. 31. Ланда, Б.Х. Методика комплексной оценки физического развития и физической подготовленности: учебное пособие / Б. Х. Ланда. – 5-е изд., испр. и доп. – М.: Советский спорт, 2011. – 346 с. Начинская, С.В. Спортивная метрология: учеб. для студентов учреждений высш. проф. образования / С.В. Начинская. – 4-е изд., стер. – М.: Academia, 2012. – 239 с.

Tadqiqotning predmetini 5-6 sinf o‘quvchilarining chidamlilik sifatini jismoniy tarbiya darslaridan tashqari mashg‘ulotlarda rivojlantirish bo‘yicha qo‘llanilgan vosita va uslublar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda mavzuga oid ilmiy-uslubiy adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish, pedagogik kuzatuvlar, antropometriya, pedagogik testlash, pedagogik tajriba, matematik-statistika usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

5-6 sinf o‘quvchilarining darsdan tashqari jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini modernzatsiyalash uchun yil bo‘yi davom etuvchi mashg‘ulotlarda chidamlilik sifatining sensitiv davrlar xususiyatlari va choraklik nazoratlarga maqsadli tayyorlash tizimi bo‘yicha parallel takomillashgan dasturni ishlab chiqish hisobiga chidamlilik mashqlarini yuqori sifat ko‘rsatkichlarda bajarish imkoniyatlari oshirilgan;

5-6 sinf o‘quvchilarining darsdan tashqari jismoniy tarbiya mashg‘ulotlar samaradorligini oshirish uchun chidamlilik sifatini bosqichli takomillashtirib borishga yo‘naltirilgan aylanma mashqlar majmuasini yoshga xos ekstropolyatsiyaviy parametrlar asosida (mashqni aniq vaqt va makon diapazonlarini his qilish kabi) qo‘llash hisobiga yugurish tezligini bir me’yorda ushlab turish ko‘rsatkichlari oshirilgan;

5-6 sinf o‘quvchilarining chidamlilik sifatini rivojlantirish uchun darsdan tashqari mashg‘ulot mezosikllarini jismoniy tarbiya dastur bo‘limlarining murakkablik darjasini bo‘yicha harakat fazalari o‘rtasidagi uzviylik bo‘yicha vaqt davomiyligini belgilovchi elementlarini (soni va energiya sarfining oshib borishi kabi) bir-biriga bog‘liq holda standart qo‘llash hisobiga o‘quvchilar chidamlilik sifatini rivojlanish jarayonini ishonchli nazorat qilib borish imkoniyatlari oshirilgan;

5-6 sinf o‘quvchilarining chidamliligin ta’minlovchi funksional ko‘rsatkichlarni oshirish uchun darsdan tashqari jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida chidamlilik sifatini rivojlantiruvchi qo‘shma sport turlariga asoslangan kompleks mashqlar majmularini (gimnastika, yengil atletika elementlarini bir-biriga mos integratsiya qilish kabi) ish qobiliyatining tebranish xususiyatlari barqarorligi bo‘yicha muvofiqlikda qo‘llash hisobiga chidamlilik sifatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan uslubiyat optimallashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. 5-6 sinf o‘quvchilarining jismoniy tayyorgarlik holatidan kelib chiqib darsdan tashqari mashg‘ulotlarda chidamlilik sifatini rivojlantiruvchi yillik maxsus mashqlar majmuasi ishlab chiqilgan;

5-6 sinf o‘quvchilarining jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligi dinamikasi tanlab olingan mashqlar orqali aniqlangan;

darsdan tashqari mashg‘ulotlarda 5-6 sinf o‘quvchilarining chidamlilik sifatini takomillashtirish metodikasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Mazkur o‘tkazilgan pedagogik tadqiqot natijalarining ishonchliligin aniqlashda mamlakatimiz hamda xorijiy davlatlar olimlarining fikr mulohazalariga asoslanganligi, usullar va nazariy materiallarning rasmiy manbalardan olinganligi, olib borilgan tajribalarning natijalari matematik-statistik tahlil metodlari yordamida ishlab chiqilganligi bilan asoslanib, kompyuter texnikasi yordamida olingan ma’lumotlar va natijalar qayta ishlab chiqilganligi

hamda mazkur ishda berilgan xulosalar hamda ilmiy tavsiyalarning ishonchliligi vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati 5-6 sinf o‘quvchilarining darsdan tashqari jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini tashkiliy-uslubiy asoslari, tuzilishi va mazmunining o‘zaro bog‘liqligi, chidamlilik sifatini rivojlantirishning pedagogik asoslarini ishlab chiqish va amaliyatga tatbiq etish, 5-6 sinf o‘quvchilarining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda chidamlilik sifatini rivojlantirish, funksional imkoniyatlari, ko‘rsatkichlarining rivojlanganlik darajasini o‘rganish, chidamlilik sifatini rivojlantirishning samarali vosita va usullarini aniqlash, darsdan tashqari jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini olib boruvchi o‘qituvchi-murabbiylar uchun chidamlilik sifatini rivojlantirish uslubiyatini takomillashtirish hamda ilmiy asoslanishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan ma’lumotlar asosida biz tomonimizdan darsdan tashqari jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida 5-6 sinf o‘quvchilarining chidamlilik sifatini rivojlantirishda ishlab chiqilgan vosita, shakl va usullar, chidamlilik sifatini shakllantirish va rivojlantirish uslubiyatidan umumta’lim maktablarida, sport maktablari, professional ta’lim tizimi amaliyatida foydalanish, o‘rta sinf ta’lim jarayoni uchun darsdan tashqari jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini olib borish bo‘yicha yangi o‘quv dasturlari va o‘quv-qo‘llanmalarni ishlab chiqish, jismoniy tarbiya tamoyillari, mashqlardan foydalanishning ilmiy-uslubiy metodlari, chidamlilik sifatini rivojlantirish va jismoniy tayyorgarligini shakllantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar hamda jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati sohasini takomillashtirish uchun xizmat qilishi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy etilishi. Darsdan tashqari jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarda 5-6 sinf o‘quvchilarini chidamlilik sifatini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik tadqiqot davomida olingan ilmiy natijalar asosida:

5-6 sinf o‘quvchilarini maktabdan tashqari jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini modernzatsiyalash uchun yil bo‘yi davom etuvchi mashg‘ulotlarda chidamlilik sifatining sensitiv davrlar xususiyatlari va choraklik nazoratlarga maqsadli tayyorlash tizimi bo‘yicha parallel takomillashgan rejalashtirilgan dasturni qo‘llash bo‘yicha taklif va tavsiyalar Toshkent shahar, Sergeli tumani 104-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining darsdan tashqari jismoniy tarbiya mashg‘ulotlariga tatbiq qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2024-yil 16-oktabrdagi 03-16/10295-son ma’lumotnomasi). Natijada, o‘quvchilarining chidamlilik ko‘rsatkichlari o‘rtacha 14,2% ga o‘sgan;

5-6 sinf o‘quvchilarining maktabdan tashqari jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari samaradorligini oshirish uchun chidamlilik sifatini bosqichli takomillashtirib borishga yo‘naltirilgan aylanma mashg‘ulot mashqlar majmuasini yoshga xos ekstropolyatsiyaviy parametrlarga (mashqni aniq vaqt va makon diapazonlarini his qilish kabi) moslashtirib qo‘llash bo‘yicha taklif va tavsiyalar Toshkent shahar, Sergeli tumani 7-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining darsdan tashqari mashg‘ulotlarida qo‘srimcha tayyorgarlik vositasi sifatida qo‘llanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2024-yil 16-oktabrdagi 03-16/10295-son

ma'lumotnomasi). Natijada, o'quvchilarining jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari o'rtacha 12,4% ga o'sishiga erishilgan;

5-6 sinf o'quvchilarining chidamlilik sifatini rivojlantirish uchun darsdan tashqari mashg'ulot mezosikllarini jismoniy tarbiya dastur bo'limlarining murakkablik darajasi bo'yicha (harakatlar murakkabligini fazalari o'rtasidagi uzviylik bo'yicha vaqt davomiyligini belgilovchi elementlari soni va energiya sarfining oshib borishi kabi) bir-biriga bog'liqli raqamlashtirilgan holda tizimli qo'llash bo'yicha taklif va tavsiyalar Toshkent shahar, Yangihayot tumani 3-sonli umumiyo'rta ta'lim maktabi o'rtalik sinf o'quvchilarining darsdan tashqari mashg'ulotlariga tatbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2024-yil 16-oktabrdagi 03-16/10295-son ma'lumotnomasi). Natijada, o'quvchilarining chidamlilik sifati bo'yicha natijalari umumiyo'rta ta'lim maktabiga 14,6%ga va funksional imkoniyatlarining ko'rsatkichlari o'rtacha 11,4%ga oshgan;

5-6 sinf o'quvchilarining chidamliligini taminlovchi funksional ko'rsatkichlarni oshirish uchun darsdan tashqari jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida chidamlilik sifatini rivojlantiruvchi qo'shma sport turlariga asoslangan kompleks mashqlar majmualarini (gimnastika, yengil atletika elementlarini bir-biriga mos integratsion qo'llash kabi) ish qobiliyatining tebranish xususiyatlari barqarorligi bo'yicha muvofiqlikda qo'llash bo'yicha taklif va tavsiyalar Toshkent shahar, Yangihayot tumani 2-sonli umumiyo'rta ta'lim maktabiga tatbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2024-yil 16-oktabrdagi 03-16/10295-son ma'lumotnomasi). Natijada, o'quvchilarining jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari o'rtacha 11,8%ga o'sishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro, 3 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda, shuningdek, Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar institutining "Ommaviy sportni tadqiq qilish" laboratoriyasining kengaytirilgan yig'ilishida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertasiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy-uslubiy ish, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 5 ta maqola (3 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya ishi kirish, 4 ta bobdan iborat bo'lib, 138 bet, 16 ta rasm, 19 ta jadval, xulosa, amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati, tadqiqotning fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'naliishlariga mosligi asoslab berilgan. Muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi bayon qilingan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqot usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi, tadqiqotning amaliy natijalari, tadqiqot natjalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy

ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi borasidagi ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning “**Maktab o‘quvchilarini darsdan tashqari mashg‘ulotlarida chidamlilik sifatini rivojlantirish bo‘yicha adabiyotlar tahlili**” deb nomlangan birinchi bobida, mamlakatimizda maktab o‘quvchilarining darsdan tashqari mashg‘ulotlarini tashkil qilish, maktab o‘quvchilarini jismoniy tarbiya darslarida shug‘ullantirish va asosiy jismoniy sifatlarini tarbiyalash bo‘yicha R.S.Salomov, T.S.Usmonxodjayev, O.V.Goncharova, G.X.Salixova, O.R.Igamberdiyev, D.N.Raxmatova, X.N.O‘tashev, L.Z.Xolmurodov, E.T.Raxmanov, A.E.Bobomurodovlar tomonidan bir qator tadqiqotlar olib borilgan.

Bugungi kunda mamlakatimizda umumta’lim maktablari o‘quvchilari bilan olib borilgan tadqiqotlarda jismoniy tarbiya darslarida berilayotgan yuklamalar yetarli emas deb hisoblanmoqda. Shu sababli hozirgi kunda o‘quvchilarning salomatlik holatini yaxshilash va jismoniy sifatlarni rivojlantirish bo‘yicha bir qator izlanishlar amalga oshirilmoqda.

Mustaqil davlatlar hamdo‘sligi olimlaridan maktab o‘quvchilarini jismoniy yuklamalarini me’yorlash, ta’lim muassasalarida darsdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil qilish va ta’lim muassasalari o‘quvchilari bilan sog‘lomlashtirishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlarni tashkil etish hamda o‘tkazish, innovatsion yondashuvlardan foydalanish, o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishi, jismoniy tayyorgarligini baholash bo‘yicha V.I.Lyax, V.K.Balsevich, L.P.Matveyev, Y.F.Kuramshin, I.P.Flyanku, Y.P.Maksachuk, Y.Y.Nikitina, B.F.Prokudin, L.V.Rubleva, V.N.Seluyanov, Y.P.Surmin, R.V.Tambovseva, G.A.Zayseva kabi olimlar qator tadqiqotlarni olib borganlar.

Xorijiy davlatlarda B.Bond, C.A.Williams, S.R.Jackman, D.Woodward, N.Armstrong, A.R.Barker, B.X.Landa, S.V.Nachinskaya kabi olimlarning biologiya fanlari sohasidagi ilmiy tadqiqotlarida monokulyar va ultratuzilmaviy darajalarda mushak hujayralarining ichki muhitida to‘plangan chidamlilikning fiziologik mexanizmlari to‘g‘risida yangi ma'lumotlar berib o‘tilgan. Bugungi kunda chidamlilik va uni rivojlantirishning uslubiy tamoyillari to‘g‘risidagi tasavvurlar organizmni faqat kislородга to‘yintirishga emas, balki to‘qima metabolizmi konsepsiyasiga va insonning maqsadli mushak faoliyati sharoitlariga moslashishining fiziologik va biokimyoiy mexanizmlarini bilishga asoslanadi.

O‘quvchilarning jismoniy tarbiyasi masalalari mutaxassislar tomonidan har tomonlama tadqiq qilinganligiga qaramay, aynan darsdan tashqari vaqtarda o‘quvchilarning chidamlilik sifatini rivojlantirishning nazariy va uslubiy jihatlari respublikamizda yetarlicha o‘rganilmagan. Yuqoridaqilardan kelib chiqib, darsdan tashqari vaqtda umumta’lim maktablari o‘rta sinf o‘quvchilarining chidamlilik sifatini rivojlantirish orqali o‘quvchilarni jismoniy tarbiyalash metodikasini takomillashtirish muammosi bugungi kunda dolzarb hisoblanadi va ilmiy-pedagogik asoslarini takomillashtirish muammosi dolzarbligini belgilab beradi.

Dissertatsiyaning “**Tadqiqot uslublari va uni tashkil etish**” deb nomlangan ikkinchi bobida, ilmiy-uslubiy adabiyotlarning tahlili, anketa so‘rovnomasi, pedagogik testlash, pedagogik tajriba, matematik statistika uslubi, tadqiqotning tashkil qilinishida ularni qo‘llash uslubiyati va shartlari batafsil yoritilgan.

Dissertatsiya ishini bajarish va tashkil qilish uchun foydalanilgan ilmiy tadqiqot metodlari yoritilgan. Dissertatsiyaning tadqiqotlar quyidagi bosqichlarda o'tkazildi.

I bosqich (2022) - mazkur mavzu bo'yicha avval e'lon qilingan ishlarni batafsil tahlil qilib chiqish; hal etilmagan muammolarni aniqlash, ushbu tadqiqot mavzusini tanlash; tadqiqot maqsadi va vazifalarini qo'yish; ushbu muammoni hal etish bo'yicha real amaliyotni o'rganish; jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasida mavjud bo'lgan hamda mazkur muammoni hal etishga yordam beruvchi chora-tadbirlarni o'rganish; tadqiqot farazini shakllantirish.

II bosqich (2022-2023) - tadqiqot quyidagi bir qator vazifalarni o'z ichiga oladi: 5-6 sinf o'quvchilarining chidamlilik sifatini o'rganish maqsadida tajriba obyektlarini aniqlash; tadqiqot jarayonining zarur davomiyligini belgilash; tajriba ishtirokchilarining dastlabki holatini baholash uchun aniq va ilmiy asoslangan metodikalarni tanlash; tanlangan metodikalarning qulayligi hamda samaradorligini kichik hajmdagi eksperimental guruhda sinovdan o'tkazish.

III bosqich (2023) - tadqiqotning ushbu bosqichi ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligini amaliy tajriba asosida tekshirishga qaratilgan bo'lib, quyidagi tadbirlarni o'z ichiga oladi:

- tajriba doirasidagi tizimning dastlabki holatini, ya'ni 5-6 sinf o'quvchilarning darsdan tashqari mashg'ulot faoliyati va jismoniy tayyorgarligi darajasini tahlil qilish;

- tajriba o'tkaziladigan shart-sharoitlarning mavjud holatini aniqlash va baholash;

- taklif etilgan chora-tadbirlar samaradorligini aniqlovchi mezonlarni shakllantirish, shuningdek, tajriba ishtirokchilariga uni samarali amalga oshirish bo'yicha zarur ko'rsatma va yo'riqnomalarni taqdim etish;

- tajribaning davrida sarflanadigan vaqt, vositalar hamda amalga oshiriladigan harakatning joriy sarfini baholash.

IV bosqich (2023-2024) - yakunlovchi bosqich tajriba natijalarini umumlashtirish va baholashga qaratilgan bo'lib, quyidagi vazifalarni amalgalash oshirishni o'z ichiga oladi:

- tajriba tadbirlari tizimini amaliyotda qo'llash natijalarini tahlil qilish, mazkur natijalarga erishishda muhim rol o'ynagan shart-sharoitlarni tavsiflash;

- tajribaviy ta'sir subyektlari - umumta'lim maktabining 5-6 sinf o'quvchilarini harakat faolligining o'ziga xos jihatlarini aniqlash va ta'riflash;

- tadqiqot davomida sinovdan o'tkazilgan tadbirlar tizimining amaliy qo'llanish imkoniyatlari va chegaralarini asoslab berish.

Dissertatsiyaning "**"Umumta'lim maktablari 5-6 sinf o'quvchilarining darsdan tashqari jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida chidamlilik sifatini rivojlantirish uslubiyati"**" deb nomlangan uchinchi bobida, umumta'lim maktablari 5-6 sinf o'quvchilarining jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarlik darajasi tahlili, 5-6 sinf o'quvchilarining chidamlilik sifatini darsdan tashqari jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida rivojlantirishga qaratilgan maxsus dasturini qo'llash mohiyati, 5-6 sinf o'quvchilarining chidamliligin aylanma mashg'ulot mashqlari orqali rivojlantirish, 5-6 sinf o'quvchilarining chidamliligin rivojlantirish uchun qo'shma sport turlariga asoslangan aralash mashqlar mazmuni, 5-6 sinf o'quvchilarini chidamlilik sifatini rivojlantirish uchun tavsiya etilgan harakatli o'yinlarning

qo'llanilishi, chidamlilik sifatini rivojlantirishga qaratilgan mikrosikllar va mezosikllar tuzilishiga doir ma'lumotlar atroflicha bayon etilgan.

Tadqiqotda 5-6 sinf o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligi xususiyati quyidagi test sinovlari bo'yicha tahlil qilindi: Yerga tayangan holda qo'llarni bukib yozish (marta), qo'llarni oldinga cho'zib o'tirib turish (marta), 6 daqiqalik yugurish (m), 1000 m ga yugurish (s), 1500 m.ga yugurish (s). Toshkent shahridagi turli maktab o'quvchilaridan tashkil bo'lgan jami 280 nafar o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligi o'rganildi: o'g'il bolalar 200 nafar va qizlar 80 nafardan iborat holatda amalga oshirildi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Pedagogik tajriba boshida 5-6 sinf o'g'il bolalarining jismoniy tayyorgarligi bo'yicha ko'rsatgan natijalarining statistik tahlili (n=200)

T/r	Nazorat mashqlari	Nazorat guruhi n=100			Tajriba guruhi n=100			t	P
		\bar{X}	σ	V%	\bar{X}	σ	V%		
1.	Yerga tayangan holda qo'llarni bukib yozish (marta)	15,44	3,50	22,64	15,27	3,51	22,99	0,34	>0,05
2.	Qo'llarni oldinga cho'zib o'tirib turish (marta)	20,45	5,95	29,10	20,02	5,89	29,42	0,51	>0,05
3.	6-daqiqa yugurish (m)	1028,63	246,48	23,96	1041,59	253,44	24,33	0,37	>0,05
4.	1000 m. ga yugurish (s)	347,84	88,84	25,54	350,81	92,72	26,43	0,23	>0,05
5.	1500 m. ga yugurish (s)	552,93	134,66	24,35	541,12	135,37	25,02	0,62	>0,05

Baholangan ko'rsatkichlar quyidagilardan iborat: yerga tayangan holda qo'llarni bukib yozish (marta), qo'llarni oldinga cho'zib o'tirib turish, 6 daqiqalik yugurish, 1000 metrga yugurish va 1500 metrga yugurish. Natijalar statistik jihatdan Olingan natijalar statistik jihatdan tahlil qilinib, guruhlar o'rtasidagi tafovutlar Styudent kritik qiymatlari asosida aniqlashtirildi.

Yerga tayangan holda qo'llarni bukib yozish nazorat mashqida nazorat guruhining o'rtacha ko'rsatkichi $15,44 \pm 3,50$ marta bo'lib, tajriba guruhida $15,27 \pm 3,51$ marta qayd etildi. Hisoblangan t qiymati $0,34$ bo'lib, $P > 0,05$. Bu farq statistik jihatdan ahamiyatli emasligini ko'rsatadi. Qo'llarni oldinga cho'zib o'tirib turish nazorat mashqida nazorat guruhida o'rtacha $20,45 \pm 5,95$ marta, tajriba guruhida esa $20,02 \pm 5,89$ marta bajargan ($t = 0,51$; $P > 0,05$).

Har ikkala guruhning ko'rsatkichlari o'rtasidagi tafovut ahamiyatli emas. 6 daqiqalik yugurish nazorat mashqida mazkur test bo'yicha o'rtacha natijalar nazorat guruhida $1028,63 \pm 246,48$ metr, tajriba guruhida esa $1041,59 \pm 253,44$ metr bo'lib, $t = 0,37$ va $P > 0,05$. Bu yugurish samaradorligida farq mavjud emasligini anglatadi. 1000 metrga yugurish nazorat mashqida nazorat guruhining ko'rsatkichi $347,84 \pm 88,84$ soniyani tashkil etgan, tajriba guruhida esa $350,81 \pm 92,72$ soniyada bosib o'tgan. Farq $t = 0,23$ ($P > 0,05$) darajasida bo'lib, ishonchli statistik tafovut mavjud emas.

1500 metrga yugurish nazorat mashqida ushbu masofaga yugurish bo'yicha nazorat guruhi $552,93 \pm 134,66$ soniyada, tajriba guruhi esa $541,12 \pm 135,37$ soniyada yakunlagan. Farq $t=0,62$, $P>0,05$ bo'lib, bu ham ahamiyatli farq emas.

Tajriba boshida 5-6 sinf qizlarining jismoniy tayyorgarlik bo'yicha ma'lumot 2-jadvalda berilgan.

2-jadval

Pedagogik tajriba boshida 5-6 sinf qizlarining jismoniy tayyorgarligi bo'yicha ko'rsatgan natijalarining statistik tahlili (n=80)

T/r	Nazorat mashqlari	Nazorat guruhi n=40			Tajriba guruhi n=40			t	P
		\bar{X}	σ	V%	\bar{X}	σ	V%		
1.	Gimnastik o'rindiqqa tayanib, qo'llarni bukib yozish (marta)	9,84	2,22	22,60	9,96	2,29	22,99	0,38	>0,05
2.	Qo'llarni oldinga cho'zib o'tirib turish (marta)	18,05	4,44	24,61	18,47	4,61	24,96	0,66	>0,05
3.	6-daqiqa yugurish (m)	883,27	173,34	19,62	875,73	173,76	19,84	0,31	>0,05
4.	1000 m. ga yugurish (s)	387,13	64,24	16,59	382,48	64,94	16,98	0,51	>0,05
5.	1500 m. ga yugurish (s)	579,72	125,23	21,60	593,63	130,44	21,97	0,77	>0,05


Yerga tayangan holda qo'llarni bukib yozish nazorat mashqida nazorat guruhida bu ko'rsatkich o'rtacha $9,84 \pm 2,22$ marta, tajriba guruhida esa $9,96 \pm 2,29$ marta qayd etildi. Hisoblangan t qiymati 0,38 bo'lib, $P>0,05$, ya'ni guruhlar o'rtasidagi farq ishonchli emas.

Qo'llarni oldinga cho'zib o'tirib turish nazorat mashqida nazorat guruhi o'rtacha $18,05 \pm 4,44$ marta, tajriba guruhi esa $18,47 \pm 4,61$ marta bajargan. Bu yerda $t=0,66$ bo'lib, garchi qiymat $P>0,05$ darajada bo'lsada, guruhlar o'rtasida deyarli sezilarli farq mavjudligini ko'rsatmoqda. 6 daqiqalik yugurish nazorat mashqida nazorat guruhi $883,27 \pm 173,34$ m., tajriba guruhi esa $875,73 \pm 173,76$ m. masofani bosib o'tdi.

Tahlil natijasida $t=0,31$ va $P>0,05$ bo'lib, ikki guruh o'rtasida mutlaqo farq mavjud emas. 1000 metrga yugurish nazorat mashqida nazorat guruhi $387,13 \pm 64,24$ soniyada, tajriba guruhi esa $382,48 \pm 64,94$ soniyada 1000 metr masofani bosib o'tdi. $t=0,51$ ($P>0,05$), ya'ni bu test bo'yicha ham statistik farq aniqlanmadidi. 1500 metrga yugurish nazorat mashqida nazorat guruhi $579,72 \pm 125,23$ soniya, tajriba guruhi esa $593,63 \pm 130,44$ soniyada yugurgan. t qiymati 0,77 bo'lib, $P>0,05$ darajasida statistik farq mavjud emas.

Umumiyl o'rta ta'lim maktablari 5-6 sinf o'quvchilarida chidamlilik sifatini darsdan tashqari mashg'ulotlarda rivojlantirishga qaratilgan maxsus dasturini qo'llash mohiyati takroriy, uzlusiz, aylanma mashg'ulot, musobaqa uslublardan foydalanildi. Chidamlilikni rivojlantirishda shug'ullanuvchilarni imkoniyatlari hisobga olingan holda yuklamalar berilishi maqsadga muvofiqdir (1-rasmga qarang).

5-6 SINF O'QUVCHILARINING CHIDAMLILIK SIFATINI RIVOJLANTIRISH DASTURINI QO'LLASH MEXANIZMI



1-rasm. 5-6 sınıf o'quvchilarining chidamlilik sifatini rivojlantirish dasturini qo'llash mexanizmi

Chidamlilik sifatini rivojlantirish dasturida mashqlarni me'yori, bajarish shiddati, uslublar va dam olish oraliplari tartib bilan berilgan.

5-6 sinf o'quvchilarining chidamliligin ayylanma mashg'ulot mashqlari orqali rivojlantirishda 9 xil ayylanma mashg'ulot mashqlari o'quvchilarga 9 oy ichida umumiy chidamlilikni rivojlantirishga qaratilgan. Har bir oy uchun 10 ta bekatli alohida ayylanma mashg'ulot mashqlari ishlab chiqildi.

Mashg'ulotlar 60 daqiqa davomida darsdan tashqari jismoniy tarbiya mashg'ulotlarda bo'lib o'tadi. Bekatlar soni 10 tani tashkil etadi. Har bir bekatda 40 soniya davomida ishlanadi. Bekatlar orasida 20-30 soniya dam olinadi. Aylana soni 2-3 martani tashkil etadi. O'quvchilarning tayyorgarlik darajasi hisobga olinadi.

Aylanma mashg'ulot tuzilishi: tayyorgarlik qismi 10-12 daqiqa davom etadi. Bu qismda organizmni asosiy yuklamalarga tayyorlash, yurak urish tezligini me'yoriy ish holatiga olib kelish va mushaklar harakatiga moslashuvni ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi. 3-5 daqiqa davomida yengil yugurish (yurak urish chastotasi 100–120 zarba/daq.) Umumrivojlantiruvchi mashqlar beriladi; tana qismlari aylantiriladi va bukib-yoziladi; arg'amchida sakrash bu harakat mushak va yurak faoliyatini jonlantiradi, mashg'ulotga oson kirish imkonini beradi.

Asosiy qismda ayylanma mashqlardan foydalaniladi, mashq 35-40 daqiqa davom etadi. Asosiy qism mashg'ulotning jadal va yuklamali qismi hisoblanadi. Aylanma mashg'ulotlar orqali turli mushak guruhlari navbat bilan ishga solinadi. Bunda 10 ta bekatli ayylanma mashg'ulot mashqlar ichiga tizza ko'tarib yugurish, o'tirib-turish, to'p bilan mashq bajarish, sakrash, qoringa press, turnikda tortilish, orqaga bukilish, qo'l bilan surilish, to'pni yuqoriga uloqtirish kabilar kiradi. Har bir bekatda 40 soniya mashq bajariladi. Bekatlar orasida 20-30 soniya faol dam olish (yurish yoki chuqur nafas olish) bajariladi. Aylanma mashqlar yordamida organizmni qisqa vaqtida ko'p sonli mushak guruhlarini ishga solinadi, bu esa umumiy chidamlilik, kislorod yetkazib berish tizimi va energiya almashinuvini yaxshilaydi. Bu turdag'i mashg'ulotlarda yuklama davriy va o'zgaruvchan bo'lishi tufayli, o'quvchilarning motivatsiyani pasaytirmaydi.

Yakuniy qism 10 daqiqani o'z ichiga oladi. Mashg'ulot yakunida organizmni sekin-asta tiklash, yurak qisqarish sonini me'yoriy holatga keltirish, mushaklarda ortiqcha taranglikni yo'qotish vazifikasi bajariladi. Bu qismda yengil yurish, nafas olish mashqlari (chuqur nafas olish, qo'l harakatlari bilan birga) va mushaklarni bo'shashtirish va cho'zish mashqlari bajariladi. Mashg'ulotdan keyingi cho'zilish va nafas mashqlari mushaklarning tiklanishini tezlashtiradi. Sentyabr uchun ayylanma mashg'ulot mashqlari 2-rasmda berilgan.

Sentyabr oyida tashkil etilgan 10 bekatdan iborat ayylanma mashg'ulotlar kompleksi 5-6 sinf o'quvchilari organizmini yangi o'quv yili boshlangan davrda yengil va bosqichma-bosqich tarzda jismoniy yuklamaga moslashtirishga qaratilgan. Ushbu mashqlar majmuasi chidamlilikni rivojlantirish bilan birga, tayanch-harakat tizimi va yurak-qon tomir faoliyatining faollashuviga xizmat qiladi.

Ushbu bekatlar asosida tuzilgan ayylanma mashg'ulotlar tizimi chidamlilikni shakllantirishda o'ziga xos o'rinn tutadi. Turli mushak guruhlarini ketma-ket ishlatish orqali mashg'ulot davomida o'quvchilarda: energiya almashinuvi jarayonlarining yaxshilanishi, mushaklar chidamliligi hamda umumiy jismoniy tayyorgarlik

darajasining oshishi kuzatiladi. Barcha asosiy mushak guruhlari qamrab olingani sababli, mashg‘ulot umumiy jismoniy rivojlanishni yaxshilaydi. Mashqlar shiddati o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasiga qarab nazorat qilinadi.



2-rasm. Sentyabr oyi uchun aylanma mashg‘ulot mashqlari

5-6 sinf o‘quvchilarida chidamlilik sifatini rivojlantirish uchun qo‘shma sport turlariga asoslangan aralash mashqlardan foydalanish samaralidir. Chidamlilik faqat jismoniy tayyorgarlikni oshiribgina qolmay, balki o‘quvchilarning funksional imkoniyatlarini ham rivojlantiradi.

Har bir sport turi o‘zining maxsus jihatlari bilan chidamlilikni rivojlantiradi. Quyidagi sport turlarini qo‘shib, mashq qildirish orqali o‘quvchilarning chidamliligini sezilarli darajada oshirish mumkin (3-jadvalga qarang).

3-jadval

Qo'shma sport turlariga asoslangan takomillashgan aralash mashqlar

Gimnastika va kurash sport turlariga oid tezkor-kuch chidamliligin rivojlantiruvchi mashqlar					
T/r	Mashqlarni bajarish mazmuni	Takrorlash soni	Dam olish oraliq'i	Shiddati	Qo'llanilgan uslublar
1	O'quvchilar juft bo'lib turishadi. 30 metr masofa belgilanadi. O'quvchilar sheriklarini oyoqlarini ko'tarib olishadi va qo'llarda yurib borishadi. 30 metrga borganda sheriklar almashadi.	60-90 soniya/ 2-3 marta	Seriylar orasida 10-20 soniya	120/140 YuQS. zarba/ daqiqa	Uzluksiz/ O'zgaruvchan oraliqli
2	O'quvchilar to'ldirma to'pni ikki qo'llab yuqoriga ko'taradi va pastga tushirib yerga tashlaydi. Yerdagi to'ldirma to'pni o'tirib-turib qo'liga oladi va harakat shu tarzda takrorlanadi.	40-60 soniya/ 10-15 marta/ 3-4 seriya	Seriylar orasida 10-20 soniya	120/140 YuQS. zarba/ daqiqa	Standart takrorlash/ O'zgaruvchan oraliqli
3	Dastlabgi holat asosiy turish. 1. Yarim o'tirib yuqoriga sakrab chap yonga burilib tushish. 2. Yarim o'tirib yuqoriga sakrab dastlabgi holatga qaytish. 3. Yarim o'tirib yuqoriga sakrab o'ng yonga burilib tushish. 4. Yarim o'tirib yuqoriga sakrab dastlabgi holatga qaytish.	40-60 soniya/ 10-15 marta 1-2 seriya	Seriylar orasida 10-20 soniya	130/150 YuQS. zarba/ daqiqa	Standart takrorlash/ O'zgaruvchan oraliqli
4	30 metr masofaga o'quvchilar qo'l va oyoqlarida yurib borib keladilar.	60-90 soniya/ 2-3 marta	Seriylar orasida 10-20 soniya	120/140 YuQS. zarba/ daqiqa	Standart takrorlash/ O'zgaruvchan oraliqli
5	Dastlabgi holat qo'llar belda. 1. Chap oyoqda ortga o'tirish, qo'llar belda. 2. Turib chap oyoqda oldinga zarba berish. 3. Dastlabgi holat. (Ikkala oyoqda galma-gal bajarish).	40-60 soniya/ 15-18 marta/ 2-3 seriya	Seriylar orasida 10-20 soniya	130/150 YuQS. zarba/ daqiqa	Standart takrorlash/ O'zgaruvchan oraliqli
6	Planka turish va galma-gal qo'llarda yonga uzatish.	30-50 soniya davomida/ 1-2 seriya	Seriylar orasida 10-20 soniya	120/140 YuQS. zarba/ daqiqa	Standart takrorlash/ O'zgaruvchan oraliqli
7	30 metr masofaga o'quvchilar tizzalarda yurib borib keladilar.	40-60 soniya davomida/ 2-3 marta	Seriylar orasida 10-20 soniya	120/140 YuQS. zarba/ daqiqa	Standart takrorlash/ O'zgaruvchan oraliqli
Yengil atletika va futbol sport turlariga oid tezkor-kuch chidamliligin rivojlantiruvchi mashqlar					
1	Turgan joyda yugurish, shiddat o'rtacha bo'ladi.	30-40 soniya davomida/ 1-2 seriya	Seriylar orasida 10-20 soniya	120/140 YuQS. zarba/ daqiqa	Uzluksiz/ O'zgaruvchan oraliqli
2	Yerga tayangan holatda qo'llarni bukib-yozish va turib yarim o'tirib qo'llarni yuqoriga ko'tarib yuqoriga sakrash.	40-60 soniya davomida/ 15-20 marta 2 seriya	Seriylar orasida 10-20 soniya	120-140 dan 170-180 zarba/daq. gacha	Standart takrorlash/ O'zgaruvchan oraliqli

3-jadval davomi

3	Oyoqlar kerilgan, yarim o'tirish holatida qo'llar oldinda. (Statik mashq).	30-40 soniya davomida/ 1-2 seriya	Seriylar orasida 10-20 soniya	120/140 YuQS. zarba/ daqiqa	Uzluksiz
4	Yarim o'tirib yuqoriga sakrash. Sakraganda tizzalarni tagidan galma-gal chapak chalish.	30-40 soniya davomida/ 15-20 marta 1-2 seriya	Seriylar orasida 10-20 soniya	120-130 dan 160-175 zarba/daq. gacha	Uzluksiz/ O'zgaruvchan oraliqli
5	Yerga tayangan holatdan tirsaklarga tayanish holatiga o'tish (Planka turish) va dastlabgi holatga qaytish.	30-40 soniya davomida/ 1-2 seriya	Seriylar orasida 10-20 soniya	120/140 YuQS. zarba/ daqiqa	Uzluksiz/ O'zgaruvchan oraliqli
6	30 metr masofaga o'quvchilar tizzalarni ko'tarib sakrab boradilar.	30-40 soniya davomida/ 1-2 seriya	Seriylar orasida 10-20 soniya	120-130 dan 160-170 zarba/daq. gacha	Uzluksiz/ O'zgaruvchan oraliqli

Sport o'yinlari (Voleybol va basketbol) turlariga oid chidamlilikni rivojlantiruvchi mashqlar

1	O'quvchilar juft bo'lib 3 metr masofada bir-birlariga qarab turishadi. Har bir juftlarni qo'lida basketbol to'pi bo'ladi. O'qituvchi signalidan so'ng o'quvchilar to'pni bir-birlariga havodan uzatishadi. Har bir uzatishda o'quvchilar to'pni yerga qo'yib bir marta yerga tayangan holatda qo'llarni bukib yozishadi va turib harakatni davom ettirishadi. (Yerga tayangan holatda qo'llarni bukib yozishda qizlar tizzalarni yerga tekkazib bajarishlari mumkin.)	30-40 soniya/ 10-15 marta/ 2-3 seriya	Seriylar orasida 10-20 soniya	130/150 YuQS. zarba/ daqiqa	Standart takrorlash/ O'zgaruvchan oraliqli
2	O'quvchilar juft bo'lib 3 metr masofada bir-birlariga qarab turishadi. Har bir juftlarni qo'lida voleybol to'pi bo'ladi. O'qituvchi signalidan so'ng o'quvchilar to'pni bir-birlariga havodan uzatishadi. Har bir uzatishda o'quvchilar to'pni ushlab turib baravariga, bir marta o'tirib-turishadi va harakatni davom ettirishadi. (O'tirib-turishda qizlar yarim o'tirib-turishlari mumkin.)	30-40 soniya/ 15-20 marta/ 3-4 seriya	Seriylar orasida 10-20 soniya	130/150 YuQS. zarba/ daqiqa	Standart takrorlash/ O'zgaruvchan oraliqli
3	30 metr masofaga o'quvchilar basketbol to'pni yerga urib borib keladi. Har 10 metrda to'p ushlab, aylanib yana harakatni davom ettiradilar.	40-60 soniya/ 3-4 marta/ 2-3 seriya	Seriylar orasida 10-20 soniya	130/150 YuQS. zarba/ daqiqa	Standart takrorlash/ O'zgaruvchan oraliqli
4	5 metrlik aylana oldida o'quvchilar juft bo'lib turadi. Har bir juftlik alohida doirada turadi. O'qituvchi signalidan so'ng doira atrofida quvlashmachoq o'ynaladi.	30-40 soniya/ 3-4 marta/ 1-2 seriya	Seriylar orasida 10-20 soniya	120-130 dan 160-170 zarba/daq. gacha	Standart takrorlash/ O'zgaruvchan oraliqli
5	30 metr masofaga o'quvchilar yengil yuguradi. Har 5 metrda o'qituvchi signali bilan o'quvchilar qo'llarini yuqoriga ko'tarib sakrashadi.	40-60 soniya davomida/ 1-2 seriya	Seriylar orasida 10-20 soniya	120/140 YuQS. zarba/ daqiqa	Uzluksiz/ O'zgaruvchan oraliqli
6	20 metr masofaga o'quvchilar bir oyoqda sakrab boradilar. Har bir oyoqda galma-gal bajaradilar.	30-50 soniya davomida/ 1-2 seriya	Seriylar orasida 10-20 soniya	120/140 YuQS. zarba/ daqiqa	Uzluksiz

O‘quvchilarga boshlang‘ich darajada mashqlarni ko‘rsatib, ularning yuklamasini vaqt o‘tishi bilan bosqichma-bosqich oshirib boriladi. Masalan, har bir mashqning davomiyligini yoki masofasini orttirish, yoki yangi qo‘srimcha mashqlarni kiritish orqali amalga oshiriladi.

O‘quvchilarni qiziqtirish uchun har bir mashqni o‘zgartirish, raqobatni tashkil qilish yoki mukofotlar berish yaxshi natijalar beradi. Bu o‘quvchilarining mashg‘ulotlarga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va chidamlilik sifatini rivojlantiradi.

Jismoniy tarbiya mashg‘ulotini boshlashda tayyorgarlik qismiga yaxshilab e’tibor berish zarur. Bo‘yin, qo‘llar, oyoqlar, bilaklar, tirsaklar, tizzalar, to‘piqlar va belni yaxshilab har xil yo‘nalishda aylantirish kerak. Cho‘zilishlar va egilish mashqlarini bajarish lozim. Sakrash mashqlari tanani yaxshi qizishiga yordam beradi. Mashg‘ulot 60 daqiqa davom etadi. Mashg‘ulotning birinchi 10 daqiqasi tayyorgarlik qismi uchun xizmat qiladi. Mashg‘ulotning keyingi 40 daqiqasi asosiy qismi bo‘lib, chidamlilikni rivojlantirish uchun qo‘sma sport turlariga asoslangan aralash mashqlar bajariladi. Mashg‘ulotning so‘ngi 10 daqiqasi yakuniy qism bo‘lib, tinchlantiruvchi va nafasni rostlovchi mashqlar berildi.

Yuqorida keltirilgan mashqlar orqali 5-6 sinf o‘quvchilarining chidamliligi, sport texnikalari va jismoniy tayyorgarliklari samarali rivojlanadi. Sport turlarining kombinatsiyasi o‘quvchilarni ko‘proq harakat qilishga undaydi va turli sport turlarini birlashtirish orqali ularning jismoniy tayyorgarligini oshirishga yordam beradi.

Qo‘sma sport mashqlarining afzalliklari: jamoaviylik va muloqotni kuchaytiradi, rag‘batlantiruvchi muhit yaratadi, raqobat orqali o‘quvchini faol harakat qilishiga undaydi, qiziqarli va serharakat mashqlar berilishi natijasida og‘irlik sezilmaydi.

Umumiy o‘rtta ta’lim maktablari 5-6 sinf o‘quvchilarining chidamlilik sifatini rivojlantirish maqsadida darsdan tashqari vaqtarda olib boriladigan jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida ishlab chiqilgan pedagogik yondashuvni mikrosikl va mezosikllar asosida qo‘llash metodikasi orqali olib boriladigan mashg‘ulotlarni o‘tkazishning yangicha mexanizmi amaliyatga tatbiq etildi.

O‘quvchilar organizmi hali to‘liq shakllanmaganligi uchun ularga yuklamani asta-sekin oshirib borish kerak. Mikrosikl va mezosikl yordamida mashg‘ulotlarni rejalashtirish ortiqcha yuklamani va zo‘riqishni oldini oladi.

Biz tomondan har bir chorak alohida bosqichlarga ajratib olindi. Bir o‘quv yili davomida 9 oy uchun 9 ta mezosikllar tuzib chiqildi. Ular har bir oy uchun alohida belgilandi. Məktabda 34 ta o‘quv haftasidan kelib chiqib 34 ta mezosikllar tuzildi. Mashg‘ulotlar haftasiga 3 marotaba 60 daqiqa davomida olib borildi.

4-jadval

5-6 sinf o‘quvchilarining maktabdan tashqari jismoniy tarbiya mashg‘ulot I-chorak-mezosikllari

I – BAZAVIY TAYYORGARLIK DAVR (I-chorak 27 soat)								
Oylar	Mikrosikllar	Mashg‘ulot maqsadi	Mashg‘ulot vazifalari	Mashg‘ulot vositalari	Mashg‘ulot uslublari	Mashg‘ulot davomiyligi	Dam olish	Uyga vazifalari
I-MEZOSIKL								
SEN TABR	1 - mikrosikl	Bazaviy tayyorgarlikni hosil qilish	- Sog‘lijni mustahkamlash; - Jismoniy sifatlarni rivojlantirish.	- Aylanma mashqlar; - Harakatli o‘yinlar.	- Bir butun (uzluksiz); - O‘yin.	60 daqiqa	Bekatlar orasida 30-40 s. dam olish, bir doiradan keyin 3 daqiqa	Ertalabgi gimnastika mashqlari
	2 - mikrosikl	Bazaviy tayyorgarlikni rivojlantirish	Chidamlilik sifatini rivojlantirish	- Qo‘shma sport turlariga asoslangan aralash mashqlar; - Arg‘amchida sakrash; - 1000-1500 m.ga yugurish.	Takrorlash oraliqli	60 daqiqa	Faol (yugurish, yurish) to‘liq emas.	Turnikda tortilish
	3 - mikrosikl	Bazaviy tayyorgarlikni takomillashtirish	- UJT rivojlantirish; - Jismoniy tayyorgarlikni oshirish.	- Harakatli o‘yinlar; - 6 daqiqa yugurish; - Arg‘amchida sakrash.	O‘yin, uzluksiz.	60 daqiqa	Tanaffussiz	Velosiped haydash
	4 - mikrosikl	Bazaviy tayyorgarlikni takomillashtirish	- UJT rivojlantirish; - Chidamlilikni rivojlantirish.	- Sport o‘yinlari; - 800-1000 m ga yugurish. Aralash mashqlar.	- O‘yin; - Bir butun (uzluksiz).	60 daqiqa	- Tanaffussiz; - To‘liq dam olish.	Suvda suzish

Izoh: Mazkur ishlab chiqilgan mashg‘ulot uslubiyati bo‘yicha yuklamalarning hajmi va shiddati o‘quvchilarning individual imkoniyatlariga hamda organizmiga ta’siridan kelib chiqib o‘zgartirilishi mumkin.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari 5-6 sinf o‘quvchilarining chidamlilik sifatini rivojlantirish maqsadida darsdan tashqari vaqtarda olib boriladigan jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida ishlab chiqilgan metodika 4 ta bosqichdan iborat:

- I – Bazaviy tayyorgarlik davri (I - chorak 27 soat);
- II – Shakllantiruvchi tayyorgarlik davri (II - chorak 21 soat);
- III – Barqarorlashtiruvchi tayyorgarlik davri (III - chorak 30 soat);
- IV – Rivojlantiruvchi tayyorgarlik davri (IV - chorak 24 soat).

Bosqichli holatda yuklamalar, vosita va usullar tizimli ketma-ketlik asosida darsdan tashqari vaqtarda olib boriladigan jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari davomida 102 ta mashg‘ulot olib borildi. Bir yillik o‘quv yili uchun 9 oyga mo‘ljallangan 9 ta mezosikllar tuzib chiqildi. Haftalik yuklamalarni to‘g‘ri berish uchun 34 ta mikrosikllar shakllantirildi. Mashg‘ulotlar haftasiga 3 marotaba 60 daqiqa davomida o‘tkazildi. Bosqichga asoslangan mashg‘ulotlar natijasida chidamlilik sifatlari yaxshiroq rivojlanadi. Har bir bosqichda maqsadli mashqlar qo‘llanildi.

Tavsiya etilgan metodikaning samaradorligi o‘quvchilarining yugurish bilan bog‘liq bo‘lgan testlari orqali baholangan bo‘lib, bu usul chidamlilik darajasidagi o‘zgarishlarni aniqlash imkonini berdi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ilmiy asoslangan va tizimli yondashuv orqali chidamlilik sifatini oshirish 5-6 sinf o‘quvchilarining jismoniy holatini sezilarli darajada yaxshilashga xizmat qiladi.

Dissertasiyaning “**Maktab 5-6 sinf o‘quvchilarining darsdan tashqari jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida chidamlilik sifatini rivojlantirish samaradorligini tajribada asoslash**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida tajriba davomida 5-6 sinf o‘quvchilarining jismoniy rivojlanishidagi o‘zgarishlar dinamikasi, tajriba davomida 5-6 sinf o‘quvchilarining jismoniy tayyorgarligi dinamikasi, 5-6 sinf o‘quvchilarida chidamlilik sifatini rivojlanish ko‘rsatkichlarining solishtirish dinamikasini asoslab beruvchi ma’lumotlar keng yoritib berilgan. 5-6 sinf o‘g‘il bolalarining jismoniy tayyorgarlik darajalari tajriba davomida qanday o‘zgarganligini 5-jadvalda berilgan ma’lumotlardan ko‘rish mumkin.

5-jadval

5-6 sinf o‘g‘il bolalarining jismoniy tayyorgarligi bo‘yicha ko‘rsatgan natijalarining statistik tahlili (n=200)

Nazorat guruhi									
T/r	Nazorat mashqlari	Tadqiqot boshida			Tadqiqot oxirida			t	P
		\bar{X}	σ	V%	\bar{X}	σ	V%		
1	Yerga tayangan holda qo‘llarni bukib yozish (marta)	15,44	3,50	22,64	16,49	3,71	22,50	2,06	<0,05
2	Qo‘llarni oldinga cho‘zib o‘tirib turish (marta)	20,45	5,95	29,10	22,23	6,33	28,48	2,05	<0,05
3	6-daqiqa yugurish (m)	1028,63	246,48	23,96	1101,35	258,37	23,46	2,04	<0,05
4	1000 m ga yugurish (s)	347,84	88,84	25,54	327,36	80,97	24,73	1,70	>0,05
5	1500 m ga yugurish (s)	552,93	134,66	24,35	515,94	122,78	23,80	2,03	<0,05

5-jadval davomi

Tajriba guruhi									
T/r	Nazorat mashqlari	Tadqiqot boshida			Tadqiqot oxirida			t	P
		\bar{X}	σ	V%	\bar{X}	σ	V%		
1	Yerga tayangan holda qo'llarni bukib yozish (marta)	15,27	3,51	22,99	17,44	3,86	22,14	4,15	<0,001
2	Qo'llarni oldinga cho'zib o'tirib turish (marta)	20,02	5,89	29,42	23,77	6,82	28,69	4,16	<0,001
3	6-daqqa yugurish (m)	1041,59	253,44	24,33	1195,47	284,37	23,79	4,04	<0,001
4	1000 m ga yugurish (s)	350,81	92,72	26,43	310,47	79,21	25,51	3,31	<0,01
5	1500 m ga yugurish (s)	541,12	135,37	25,02	466,34	113,26	24,29	4,24	<0,001

Yerga tayangan holda qo'llarni bukib yozish nazorat mashqi ko'krak mushaklari, yelka va qo'l chidamliliginin baholashga yordam beradi. Tajriba boshida nazorat guruhida o'rtacha natija 15,44 martani tashkil etgan bo'lsa, tajriba yakunida 16,49 martaga yetdi. Ko'rsatkichlar o'rtasidagi farq statistik jihatdan ishtirokchilarning tabiiy jismoniy o'sishi bilan bog'liq, chunki farq ($t=2,06$; $P<0,05$).

Qo'llarni oldinga cho'zib o'tirib turish mashqida tananing pastki qismi va tizzalar mushaklarining chidamliligi baholanadi. O'quvchilar tajriba boshida nazorat guruhida o'rtacha 20,45 marta bajargan, tajriba oxirida esa bu ko'rsatkich 22,23 martani tashkil etdi. Statistik tahlil bu o'zgarishni ishonchliligi ($t=2,05$; $P<0,05$). 6 daqqa yugurish testida yurak-qon tomir va nafas olish tizimlari funksional holatini baholaydi. Dastlabki bosqichda o'rta masofa 1028,63 metrni tashkil etgan bo'lsa, tajriba oxirida bu ko'rsatkich (1101,35 m) natijani ko'rsatdi. $t=2,04$; $P<0,05$ hisoblanadi.

1000 metrga yugurish natijalari ham eksperiment mobaynida 347,84 s. dan 327,36 s. gacha o'zgargan Bu esa mashqlarda o'zgarish ($t=1,70$; $P>0,05$) bo'lganini ko'rsatdi.

1500 metrga yugurish bo'yicha ko'rsatkichlar 552,93 s. dan 515,94 s. gacha kamaygan, bu farq statistik jihatdan ishonchliligi ($t=0,65$; $P>0,05$) ni tashkil etadi.

Tajriba guruhi ishtirokchilariga qo'llanilgan maxsus jismoniy mashg'ulotlar tizimi pedagogik tajriba davomida ularning umumiy jismoniy holatiga ijobiyligi ta'sir ko'rsatgan. Quyida keltirilgan natijalar asosida bu ta'sirlar statistik tahlil orqali tasdiqlangan.

Yerga tayangan holda qo'llarni bukib yozish mashqida yuqori tananing kuchi va chidamliliginin baholaydi. Tadqiqot boshida o'rtacha 15,27 marta bo'lgan bu ko'rsatkich, tajriba yakunida 17,44 martaga oshdi. Bu 2,17 marta o'sish yuqori statistik ishonchlilik bilan tasdiqlangan ($t=4,15$; $P<0,001$). Demak, qo'llanilgan metodika o'quvchilarning ko'rsatkichlarini ancha yaxshilagan.

Qo'llarni oldinga cho'zib o'tirib turish mashqida tananing quyi qismi mushaklarining kuchi va chidamliliginin baholaydi. Ko'rsatkich 20,02 martadan 23,77 martagacha oshdi. Bu esa 3,75 marta sezilarli o'sishni bildiradi. $t=4,16$; $P<0,001$ bo'lishi, farqning statistik jihatdan yuqori darajada ahamiyatli ekanini ko'rsatadi. 6

daqiqa davomida yugurish testida yurak-qon tomir va nafas tizimi imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi. 1041,59 metrdan 1195,47 metrgacha bo‘lgan farq (153,88 m) ga katta bo‘lgan, statistik tahlilga ko‘ra ($t=4,04$; $P<0,001$) ishonchli farq hisoblanadi. Bu natija funksional holatdagi ijobiy siljishni bildiradi. Tadqiqot davomida 1000 metrga yugurish natijasi 350,81 soniyadan 310,47 soniyagacha qisqargan. 40,34 soniyalik o‘zgarish yugurish tezligining ortganini anglatadi. Bu farq ham statistik jihatdan yuqori ahamiyatga ega ($t=3,31$; $P<0,01$).

1500 metrga yugurish ko‘rsatkichlarida ham ijobiy dinamika kuzatildi. Tadqiqot boshida 541,12 soniya bo‘lgan bo‘lsa, tajriba oxirida bu natija 466,34 soniyaga qisqardi. Ishonchlilik darajasi ($t=4,24$; $P<0,001$) ni tashkil etadi. Bu o‘z o‘rnida chidamlilik va yurak-qon tomir tizimi samaradorligining oshganini ko‘rsatadi.

5-6 sinf qizlarining jiemoniy tayyorgarlik darajalari tajriba davomida qanday o‘zgarganligini 6-jadvalda berilgan ma’lumotlardan ko‘rish mumkin.

6-jadval

5-6 sinf qizlarining jiemoniy tayyorgarligi bo‘yicha ko‘rsatgan natijalarining statistik tahlili (n=80)

Nazorat guruhi									
T/r	Nazorat mashqlari	Tadqiqot boshida			Tadqiqot oxirida			t	P
		\bar{X}	σ	V%	\bar{X}	σ	V%		
1	Gimnastik o‘rindiqqa tayanib, qo‘llarni bukib yozish (marta)	9,84	2,22	22,60	10,50	2,36	22,44	2,04	<0,05
2	Qo‘llarni oldinga cho‘zib o‘tirib turish (marta)	18,05	4,44	24,61	19,36	4,73	24,43	2,02	<0,05
3	6-daqiqa yugurish (m)	883,27	173,34	19,62	934,13	181,68	19,45	2,03	<0,05
4	1000 m ga yugurish (s)	387,13	64,24	16,59	372,09	61,19	16,44	1,80	>0,05
5	1500 m ga yugurish (s)	579,72	125,23	21,60	544,57	116,71	21,43	2,05	<0,05
Tajriba guruhi									
T/r	Nazorat mashqlari	Tadqiqot boshida			Tadqiqot oxirida			t	P
		\bar{X}	σ	V%	\bar{X}	σ	V%		
1	Gimnastik o‘rindiqqa tayanib, qo‘llarni bukib yozish (marta)	9,96	2,29	22,99	11,35	2,51	22,12	4,09	<0,001
2	Qo‘llarni oldinga cho‘zib o‘tirib turish (marta)	18,47	4,61	24,96	21,32	5,14	24,11	4,13	<0,001
3	6-daqiqa yugurish (m)	875,73	173,76	19,84	975,44	186,53	19,12	3,91	<0,001
4	1000 m ga yugurish (s)	382,48	64,94	16,98	353,95	57,16	16,15	3,30	<0,01
5	1500 m ga yugurish (s)	593,63	130,44	21,97	523,77	110,67	21,13	4,08	<0,001

Gimnastik o‘rindiqqa tayanib, qo‘llarni bukib yozish mashqda qizlarning yuqori tana mushaklari chidamliliginini baholaydi. Dastlabki ko‘rsatkich nazorat guruhida 9,84 marta bo‘lib, tajriba yakunida bu raqam 10,50 martani tashkil etdi. Natijani

ortganini ko‘rish mumkin. Ishonchlilik darajasi $t=2,04$ $P<0,05$ ni ko‘rsatdi. Bu o‘zgarish asosan o‘quvchilarning tabiiy jismoniy rivojlanish sur’atlari bilan bog‘liqdir.

Qo‘llarni oldinga cho‘zib o‘tirib turishda tadqiqot boshida nazorat guruhida 18,05 marta, oxirida esa 19,36 marta bajarilgan. O‘zgarish 1,31 ni tashkil etgan. Tahlil natijasida bu farq statistik jihatdan $t=2,02$ $P<0,05$ ni ko‘rsatdi. Bu esa o‘quvchilarning tayyorgarligida sezilarli o‘zgarish bo‘lganini bildiradi.

6 daqiqa yugurish testida yurak-qon tomir va nafas tizimlari holatini aniqlovchi bu ko‘rsatkich 883,27 metr (boshlanishida) va 934,13 metr (yakunda) natija aniqlandi. Ishonchlilik darajasi $t=2,03$ $P<0,05$ ni ko‘rsatdi.

1000 metrga yugurishda boshlang‘ich ko‘rsatkich 387,13 soniya bo‘lib, tadqiqot oxirida 372,09 soniyagacha kamaygan. Natija o‘zgarishi nazariy jihatdan ijobjiy ko‘rinsada, statistik tahlilga ko‘ra $t=1,80$ $P>0,05$ ni ko‘rsatdi.

1500 metrga yugurish natijasi 579,72 soniyadan 544,57 soniyagacha yaxshilangan. Farq esa jismoniy tayyorgarlikda tabiiy o‘zgarish bo‘lganini ko‘rsatdi. Ishonchlilik darajasi $t=2,05$ $P<0,05$ ni ko‘rsatdi. Tajriba guruhi qizlarining jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari tahlil qilindi.

Tajriba guruhi ishtirokchilari bilan olib borilgan maqsadli jismoniy mashg‘ulotlar pedagogik tajribaning samaradorligini baholashda muhim rol o‘ynadi. Tadqiqot boshida va oxirida olingan natijalar asosida quyidagi o‘zgarishlar aniqlandi.

Gimnastik o‘rindiqqa tayanib, qo‘llarni bukib yozish mashqda tana mushaklarining chidamlilagini baholaydi. Tajriba boshlanishida o‘quvchilar o‘rtacha 9,96 marta mashq bajargan bo‘lsa, tajriba oxirida bu ko‘rsatkich 11,35 martaga yetdi. 1,39 ga o‘sish $t=4,09$ $P<0,001$ statistik jihatdan ahamiyatli bo‘lib, qo‘llanilgan metodik yondashuv natijasida tayyorgarlik darajasi oshganini bildiradi.

Qo‘llarni oldinga cho‘zib o‘tirib turish nazorat mashqda tadqiqot boshida 18,47 martadan 21,32 martagacha oshgan. Bu natija 2,85 ga oshganini bildiradi. Ishonchlilik $t=4,13$ $P<0,001$ natijasi o‘zgarishning yuqori darajada ishonchli ekanini ko‘rsatdi.


6 daqiqa yugurish nazorat mashqi chidamlilik sifatini aniqlashga xizmat qildi. 875,73 metrdan 975,44 metrgacha bo‘lgan farqli natija aniqlandi. Ishonchlilik darajasi $t=3,91$ $P<0,001$ bo‘lishi, bu o‘zgarish jismoniy imkoniyatlar yaxshilanganidan dalolat beradi.

1000 metrga yugurish ko‘rsatkichda tadqiqot boshida 382,48 soniyani tashkil qilgan bo‘lsa, tadqiqot oxiriga kelib 353,95 soniya natija aniqlandi. Statistik tahlilga ko‘ra $t=3,30$ $P<0,01$ ishonchlilik qayd etildi. Bu esa yugurish qobiliyati, chidamlilik va yurak-qon tomir tizimi holatining ijobjiy o‘zgarishini anglatadi.

1500 metrga yugurish bo‘yicha ham ijobjiy natija qayd etildi. Tadqiqot boshida 593,63 soniya aniqlangan bo‘lsa, tadqiqot oxiriga kelib tajriba guruhi qizlari 523,77 soniya natijani ko‘rsatishdi. Ishonchlilik $t=4,08$ $P<0,001$ darajada statistik jihatdan ishonchli deb topildi.

Pedagogik tajriba yakunida 5-6 sinf o‘g‘il bolalarining tanlangan nazorat mashq bo‘yicha ko‘rsatgan natijalarining pedagogik tajribadan keyingi nisbiy o‘sish dinamikasi 3-rasmda keltirilgan.

5-6 sinf o‘g‘il bolalarining tanlangan nazorat mashqlar bo‘yicha ko‘rsatgan natijalarining pedagogik tajribadan keyingi nisbiy o‘sish dinamikasi



3-rasm. 5-6 sinf o‘g‘il bolalarining tanlangan nazorat mashqlar bo‘yicha ko‘rsatgan natijalarining pedagogik tajriba oxiridagi nisbiy o‘sish dinamikasi

Pedagogik tajriba yakunida o‘tkazilgan nazorat mashqlari asosida tajriba va nazorat guruhlari o‘quvchilarining jismoniy tayyorgarlik darajasidagi nisbiy o‘zgarishlar tahlil qilindi. Rasmdagi ma’lumotlarga ko‘ra, barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha tajriba guruhi ishtirokchilari nazorat guruhiga nisbatan ancha yuqori ijobiy natijani namoyon etgan.


Xususan, yerga tayangan holda qo’llarni bukib yozish ko‘rsatkichida tajriba guruhida 14,19 foizlik o‘sish qayd etilgan bo‘lsa, nazorat guruhida bu ko‘rsatkich 6,8 foizni tashkil etgan. Shuningdek, qo’llarni oldinga cho’zib o’tirib turish mashqi bo‘yicha ham tajriba guruhi 18,73 foizga o‘sish ko‘rsatgan, nazorat guruhida esa bu o‘sish 8,7 foiz bilan cheklangan.

Yugurish nazorat mashqlari bo‘yicha ham o‘zgarishlar aniq ko‘zga tashlanadi. 6 daqiqa davomida yugurish ko‘rsatkichlari tajriba guruhida 14,77 foizga, nazorat guruhida esa faqatgina 7,07 foizga oshgan. Bu esa tajriba dasturining chidamlilikni rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatganini anglatadi. Shu bilan birga, 1000 metrga yugurish bo‘yicha natijalar mos ravishda 11,5% va 5,89% nisbiy o‘sishni, 1500 metrga yugurishda esa 13,82% va 6,69% o‘sish bilan ifodalangan.

Ushbu ko‘rsatkichlar tajriba guruhi o‘quvchilari uchun qo’llanilgan pedagogik uslub va mashg‘ulotlar dasturi samarali bo‘lganini, ularning umumiyligi jismoniy tayyorgarligida sezilarli ijobiy o‘zgarishlarga olib kelganini ko‘rsatadi. Aksincha, nazorat guruhida esa an‘anaviy yondashuv sababli rivojlanish sur’atlari tabiiy darajada qolgan.

5-6 sinf qizlarining tanlangan nazorat mashqlari bo‘yicha ko‘rsatgan natijalarining pedagogik tajribadan keyingi nisbiy o‘sish dinamikasi 4-rasmda keltirilgan.

5-6 sinf qizlarining tanlangan nazorat mashqlar bo'yicha ko'rsatgan natijalarining pedagogik tajribadan keyingi nisbiy o'sish dinamikasi



4-rasm. 5-6 sinf qizlarining tanlangan nazorat mashqlar bo'yicha ko'rsatgan natijalarining pedagogik tajriba oxiridagi nisbiy o'sish dinamikasi

Pedagogik tajribaning yakuniy bosqichida 5-6 sinf qizlari o'rtasida o'tkazilgan jismoniy tayyorgarlik bo'yicha nazorat mashqlarining natijalari tahlili ularning chidamlilik sifatini rivojlanishidagi o'zgarishlarni aniqlashga xizmat qildi. Rasmda keltirilgan ma'lumotlar asosida shuni ko'rish mumkinki, tajriba guruhi ishtirokchilari nazorat guruhidagilarga nisbatan sezilarli darajada yuqori natijalarni namoyon etgan.

Jumladan, gimnastik o'rindiqqa tayanib, qo'llarni bukib yozish mashqda tajriba guruhida 13,94% aniqlikdagi o'sish kuzatilgan bo'lsa, nazorat guruhida bu ko'rsatkich 6,71% ni tashkil etdi. Qo'llarni oldinga cho'zib o'tirib turish mashqda esa tajriba guruhi 15,43% ga o'sdi. Bu natija nazorat guruhidagi 7,26% lik o'sishga nisbatan ustunlikni ko'rsatdi.

Yugurish bo'yicha sinov natijalari ham tajriba guruhining afzalliklarini yaqqol namoyon etadi. 6 daqiqa davomida yugurish mashqi bo'yicha tajriba guruhida 11,39% lik, nazorat guruhida esa 5,76% lik o'sish qayd etilgan. Shuningdek, 1000 metrga yugurish natijalari mos ravishda 7,46% va 3,88%, 1500 metrga yugurish bo'yicha esa 11,77% va 6,06% ni tashkil qilgan.

Ushbu raqamlar tajriba guruhi ishtirokchilari uchun qo'llanilgan metodika va maxsus dastur yondashuvlarning yuqori samaradorligini isbotlaydi. Shuningdek, an'anaviy uslubda mashg'ulotlar olib borgan nazorat guruhi bilan taqqoslaganda, yangi yondashuv orqali o'quvchilarning jismoniy faolligi va tayyorgarlik darajasini sezilarli darajada oshirish mumkinligi aniqlandi.

XULOSALAR

Tajribaga jalb etilgan 5-6 sinf o'quvchilarining chidamliligini rivojlantirish uslubiyatini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalarini umumlashtirilgan holatda quyidagi xulosalarga kelindi.

1. Ilmiy va uslubiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, hozirgi vaqtida matabda darsdan tashqari jismoniy tarbiya mashg'ulotlari jarayonida chidamlilik sifatining rivojlanishi namoyishli bo'lib, bu asosan, maktab o'quvchilarining chidamlilik sifatini rivojlantirish uchun sinovlarida faoliyatining sezilarli pasayishini belgilaydi. Shuning uchun yetarli darajadagi chidamlilik sifatini doimiy ravishda ta'minlash zarurati dasturda nazarda tutilgan chidamlilik sifatini rivojlantirish standartlarini amalga oshirish muvaffaqiyatini belgilovchi omili, ammo hozirgi vaqtida maktab o'quvchilarining jismoniy tarbiyasida chidamlilik sifatini tizimli rivojlantirishga yetarlicha e'tibor qaratilmayotganligi ma'lum bo'ldi.

2. Pedagogik tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, chidamlilik sifatini rivojlanish darajasini aks ettiruvchi nazorat sinovlarida eng katta natijalar tajriba guruhiga kiruvchi 5-6 sinf o'quvchilari tomonidan ko'rsatildi va yakuniy yutuqlar: "6 daqiqaga yugurish", "1000 m.ga yugurish", "1500 m.ga yugurish" mashqlarida, ko'rindi. Shunday qilib, jismoniy tarbiya darslaridan tashqari mashg'ulotlarda chidamlilik sifatini uzlusiz rivojlantirish bo'yicha taklif qilingan dasturdan foydalanildi, u o'zining natijaviyligi va samaradorligi asoslandi. 5-6 sinf o'g'il bolalarida yerga tayangan holda qo'llarni bukib yozish mashqi ko'rsatkichlarida tajriba guruhida 14,39% o'sish qayd etilgan bo'lsa, nazorat guruhida bu ko'rsatkich atigi 6,80% ni tashkil etdi. Shuningdek, qo'llarni oldinga cho'zib o'tirib turish mashqi bo'yicha ham tajriba guruhi 18,73% o'sish ko'rsatgan, nazorat guruhida esa o'sish 8,70% bilan cheklangan. 5-6 sinf qizlarida gimnastik o'rindiqqa tayanib, qo'llarni bukib yozish mashqda tajriba guruhida 13,94% aniqlikdagi o'sish kuzatilgan bo'lsa, nazorat guruhida bu ko'rsatkich 6,71% ni tashkil etdi. Gimnastik o'rindiqqa tayanib, qo'llarni bukib yozish mashqda esa tajriba guruhi 15,43% ga o'sdi, bu esa nazorat guruhidagi 7,26% o'sishga nisbatan bir baravarga yaqin ustunlikni ko'rsatdi.

3. 5-6 sinf o'g'il bolalarida yugurish nazorat mashqlari bo'yicha ham sezilarli o'zgarishlar kuzatiladi. 6 daqiqa davomida yugurish ko'rsatkichlari tajriba guruhida 14,77%, nazorat guruhida esa 7,07% ga oshgan. Bu natijalar tajriba dasturining chidamlilikni rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatganini anglatadi. 5-6 sinf qizlarida yugurish bo'yicha sinov natijalari ham tajriba guruhining afzalliklarini aniq namoyish etadi. 6 daqiqa davomida yugurish mashqi bo'yicha tajriba guruhida 11,39% lik o'sish qayd etilgan bo'lsa, nazorat guruhida bu ko'rsatkich 5,76% ni tashkil etdi.

4. 5-6 sinf o'g'il bolalarida 1000 metrga yugurish natijalari mos ravishda 11,5% va 5,89%, 1500 metrga yugurish bo'yicha esa 13,82% va 6,69% o'sishni ko'rsatdi. 5-6 sinf qizlarida 1000 metrga yugurish natijalari mos ravishda 7,46% va 3,88%, 1500 metrga yugurish bo'yicha esa 11,77% va 6,06% ni tashkil qildi. Ushbu ko'rsatkichlar tajriba guruhi o'quvchilari uchun qo'llanilgan pedagogik yondashuv va mashg'ulotlar dasturining samaradorligini, ularning umumiyligi jismoniy tayyorgarligida sezilarli ijobiy o'zgarishlarga olib kelganligini tasdiqladi. An'anaviy uslubda mashg'ulot olib borgan nazorat guruhi bilan solishtirganda, yangi yondashuv orqali o'quvchilarning chidamlilik sifati va tayyorgarlik darajasini sezilarli darajada oshirish mumkinligi aniqlandi.

5. Toshkent shahar, Sergeli tumani 104-sonli umumiyligi o'rta ta'lim matabining o'rta sinf o'quvchilari uchun ishlab chiqilgan maxsus dastur chidamlilik sifatini rivojlantirish bo'yicha umumiyligi o'rta ta'lim maktabi o'quvchilari darsdan tashqari

mashg‘ulotlarida qo‘llanilib tajriba guruhidan olingen chidamlilik sifati bo‘yicha natijalar umumiy 14,2% ga o‘sigan, funksional imkoniyati 11,4%ga yaxshilangan.

6. O‘rta sinf o‘quvchilarini darsdan tashqari jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida chidamliligini rivojlantirish uchun aylanma mashg‘ulot mashqlarini ishlab chiqilgan va o‘rta sinf o‘quvchilarining darsdan tashqari mashg‘ulotlariga tatbiq qilingan. Toshkent shahar, Sergeli tumani 7-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining o‘rta sinf o‘quvchilari uchun ishlab chiqilgan aylanma mashg‘ulot mashqlari, o‘rta sinf o‘quvchilarining darsdan tashqari mashg‘ulotlarida qo‘sishimcha tayyorgarlik vositasi sifatida qo‘llanilgan. Tajriba guruhining jismoniy tayyorgarligi bo‘yicha olingen natijalar o‘rtacha 12,4% ga yaxshilangan.

7. Umumta’lim maktabi o‘rta sinf o‘quvchilari darsdan tashqari mashg‘ulotlariga ishlab chiqilgan qo‘shma sport turlariga asoslangan kompleks mashqlar majmualari Toshkent shahar, Yangihayot tumani 2-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabiga tatbiq etilgan. Natijada, o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishi 11,8%ga yaxshilangan.

8. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida, chidamlilik sifatini rivojlantiruvchi mezosikllar tuzib chiqilgan va Toshkent shahar, Yangihayot tumani 3-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘rta sinf o‘quvchilarining darsdan tashqari mashg‘ulotlariga tatbiq etilgan. Natijada, o‘quvchilarning chidamlilik sifati bo‘yicha natijalari 14,6%ga yaxshilangan.

AMALIY TAVSIYALAR

Ishlab chiqilgan metodikani tajribaga jalb etilgan 5-6 sinf o‘quvchilarining chidamliligini rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalarini umumlashtirilgan holatda quyidagi amaliy tavsiyalar asosida darsdan tashqari jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida qo‘llash maqsadga muvofiq.

1. Biz tomondan ishlab chiqilgan dastur o‘quv yili davomida chidamlilik sifatini rivojlantirish muammosini samarali hal qilishga imkon beradi. Ushbu vositaning ko‘p qirraliligi quyidagilarga bog‘liq: birinchidan, ixchamlik chunki uni amalga oshirish uchun darsdan tashqari jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida foydalaniladi, uni sport maydonida ham, sport zalida ham qo‘llash mumkin; ikkinchidan, bu tejamkorlik chunki uni amalga oshirish katta miqdordagi sport asbob-uskunalarni talab qilmaydi; uchinchidan, ushbu mashqdan nafaqat chidamlilik sifatini rivojlantirish vositasi sifatida foydalanish mumkin.

2. 5-6 sinf o‘quvchilarining darsdan tashqari jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida chidamlilik sifatini rivojlantirishga qaratilgan aylanma mashg‘ulot mashqlari har bir o‘quv oyi uchun tuzilgan bo‘lib, ular bilan shug‘ullanish o‘quvchilarni sog‘ligini va chidamlilik sifatini yaxshilashga imkon beradi. 9 ta oy uchun alohida 10 ta bekatli 9 ta aylanma mashg‘ulot mashqlari 5-6 sinf o‘quvchilarining darsdan tashqari jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida chidamlilik sifatini rivojlantirish uchun tavsiya etiladi.

3. 5-6 sinf o‘quvchilarining darsdan tashqari jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida chidamlilik sifatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan qo‘shma sport turiga asoslangan aralash mashqlar majmuasi har xil harakatlar orqali o‘zgaruvchan mashqlarni birlashtirgan bo‘lib, o‘quvchilarda chidamlilik sifatini rivojlantirish yordam beradi.

4. Maktab 5-6 sinf o‘quvchilarining chidamlilik sifatini rivojlantirishda darsdan tashqari jismoniy tarbiya mashg‘ulotlariga harakatli o‘yinlar tanlab olingen bo‘lib, ular orqali o‘quvchilarni mashg‘ulotlarda yoppasiga qamrab olish va jismoniy rivojlanishlarini oshirishga imkon beradi. 5-6 sinf o‘quvchilarini darsdan tashqari jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida chidamlilik sifatini rivojlantirish uchun 20 ta harakatli o‘yinlar tanlab olindi. Ulardan 2-3 tasi har bir o‘quv oyida 5-6 sinf o‘quvchilarini darsdan tashqari jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida o‘ynatildi.

5. 5-6 sinf o‘quvchilarining chidamlilik sifatini oshirish uchun mashg‘ulot yuklamalarini me’yorlashda taklif qilingan me’yorlarni qo‘llash va o‘quvchilarni darsdan tashqari jismoniy tarbiya mashg‘ulotlariga qamrab olish va shug‘ullanishda qo‘llaniladigan vositalarni inobatga olgan holda to‘rtta bosqichda tashkillashtirish tavsiya etiladi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari 5-6 sinf o‘quvchilarining chidamlilik sifatini rivojlantirish maqsadida darsdan tashqari vaqtarda olib boriladigan jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida ishlab chiqilgan metodika 4 ta bosqichdan iborat: bazaviy tayyorgarlik davri I - chorak uchun 27 soat, shakllantiruvchi tayyorgarlik davri II - chorak uchun 21 soat, barqarorlashtiruvchi tayyorgarlik davri III - chorak uchun 30 soat, rivojlantiruvchi tayyorgarlik davri IV - chorak uchun 24 soat etib belgilandi.

6. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari tarkibida chidamlilik sifatini rivojlantirishning o‘rni aniqlandi. Haftalik mikrosikllar va oylik mezosikllar jami o‘quv yili uchun 102 soat mashg‘ulot mavjud. Ushbu yondashuv aerob faoliyatdan keyin uzoq vaqt tiklanish zaruriyati bilan oqlanadi va ushbu yo‘nalishdagi muntazam mashqlar unumli faoliyatni ta’minalash, o‘quvchilarning sog‘lig‘ini yaxshilash va ularning chidamlilik qobiliyatini rivojlantirish standartlarini muvaffaqiyatli o‘tkazish uchun yetarli darajadagi chidamlilik sifatini saqlashga imkon beradi. Bu esa, sport to‘garaklari jarayonida chidamlilik sifatini rivojlantirishni yanada tartibli, uni shakllantirish izchilligi talabiga javob beradigan qilish imkonini beradi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАУЧНО - ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ
ИНСТИТУТЕ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА**
**НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ ФИЗИЧЕСКОЙ
КУЛЬТУРЫ И СПОРТА**

ХАСАНОВ ДИЛМУРОД ХОЛМУРОД УГЛИ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ ВЫНОСЛИВОСТИ
У УЧАЩИХСЯ СРЕДНИХ КЛАССОВ**

**13.00.04 - Теория и методика физического воспитания, спортивной тренировки,
оздоровительной и адаптивной физической культуры**

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам**

Ташкент - 2026

Тема диссертации доктора философии по педагогическим наукам (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан под номером В2022.2.PhD/Ped3741.

Докторская диссертация выполнена в Научно-исследовательском институте физической культуры и спорта.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-сайте научного совета по адресу (www.jtsu.uz) и информационно-образовательном портале “ZiyoNet” по адресу (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Умаров Джамшид Хасанович

доктор педагогических наук (DSc), профессор

Официальные оппоненты:

Тухтабоев Низомжон Турсуналиевич

доктор педагогических наук (DSc), профессор

Мусаев Бахром Бахтиёрович

доктор педагогических наук (DSc), профессор

Ведущая организация:

Кокандский Государственный Университет

Защита диссертации состоится “_____” “_____” 2026 года в “_____” часов на заседании научного совета DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 Научно-исследовательского института физической культуры и спорта по адресу: 100073, Город Ташкент, Яшнабадский район, улица Новый Узбекистан, Олимпийский городок. Провод: (0-370)-717-18-19, 717-27-27, факс: (0-370)-717-17-76, сайт: www.djtsu.uz, e-mail: info@jtsu.uz. государственная академия спорта Узбекистана” административное “здание 1 этаж, комната 145).

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-Ресурсном центре Узбекского государственного университета физической культуры и спорта (_____ зарегистрировано по номеру). (Адрес: 111709, Ташкентская область, г. Чирчик, ул. спортсменов, д. 19. Провод: (0-370)-717-18-19, 717-27-27, факс: (0-370)-717-17-76.

Автореферат диссертации разослан “_____” _____ 2026 года.
(реестр протокола рассылки № _____ от “____” _____ 2026 года).

Ф.А.Керимов

Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней,
д.п.н., профессор

Д.Я.Эгамов

Ученый секретарь Научного совета
по присуждению ученых степеней,
д.ф.п.н. (PhD)

О.Ж.Дадабаев

Председатель научного семинара при
Научном совете по присуждению
ученых степеней, д.п.н. (DSc), профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность проблемы исследования. В мире современное состояние общества и высокие темпы его развития предъявляют повышенные требования к подрастающему поколению и укреплению его здоровья. В этом контексте развитие физической культуры и спорта среди молодежи имеет важное значение во всех странах. Особое внимание уделяется повышению интереса школьников к физической культуре и спорту, внедрению инновационных форм обучения и воспитания, созданию и индивидуализации программ, направленных на максимальную реализацию функциональных возможностей организма на основе всестороннего физического развития, применению современных педагогических технологий в воспитательном процессе, а также поиску наиболее рациональных средств и методов развития выносливости учащихся во внеурочной деятельности по физической культуре. В условиях современной глобализации все перечисленные направления приобретают особую актуальность.

В странах мира проводится значительное количество научных исследований, посвящённых организации внеклассных занятий, направленных на эффективное использование свободного времени школьников, укрепление их здоровья, развитие физических качеств, формирование двигательных навыков и умений. По современным данным, в условиях стремительного развития передовых технологий наблюдается снижение двигательной активности учащихся средних классов. Для её решения необходимо разрабатывать микро- и мезоциклы, ориентированные на рациональное использование различных спортивных и подвижных игр в каждой учебной четверти, составлять круговые тренировочные комплексы на каждый месяц учебного года, систематически применять комбинированные упражнения, основанные на сочетании различных видов спорта, а также апробировать в реальных условиях тренировочные программы, направленные на развитие выносливости с учётом уровня физической и функциональной подготовленности учащихся.

В нашей республике особое внимание уделяется методам развития физических качеств при эффективной организации занятий по физическому воспитанию школьников¹. Последовательно реализуются меры, направленные на формирование гармонично развитого поколения, духовно-нравственное и физическое воспитание молодежи, а также на вовлечение её в активное участие в проводимых реформах. Работа по повышению качества физического воспитания школьников приобретает всё более разнообразные формы. Учитывая изложенное, возникает необходимость проведения современных научных исследований, направленных на развитие выносливости учащихся средних классов на внеклассных занятиях по физической культуре.

¹ Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-3907 от 14 августа 2018 года "О мерах по повышению на качественно новый уровень системы духовно-нравственного и физического воспитания молодежи, а также системы их обучения и воспитания." <http://lex.uz>.

